


ISSN 2010-5460

MAKTAB VA HAYOT

ILMIY-METODIK JURNAL

Maxsus son № 2





O'QUVCHILARNI KASB-HUNARGA YO'NALTIRISH VA PSIXOLOGIK-PEDAGOGIK RESPUBLIKA TASHXIS MARKAZI

AVTOMOBILLARNI TA'MIRLASH TEXNIGI

Uning faoliyati avtomobillarni sozlash, zararlangan qismlarni almashtirish va qayta ta'mirlashdan iborat

ISH FAOLIYATINING

MAZMUNI VA ISH

SHARTI

Ishtab chiqarish, xizmat ko'rsatish va boshqaruv, faoliyat sohalari: transport, sanoat xizmati, avtomobil tuzatish mexanigi, avtomashinalarning tuzilishi va buzilish sabablari haqida to'liq ma'lumotga ega bo'lishi kerak; texnik chizmalar va diagrammalarini o'qiy olishi kerak; avtotransport vositasining turli tarkibiy qismlari bir-biriga qanday ta'sir qilishini tushunish; diagnostika, ta'mirlash, texnik ko'rik jarayonida texnologiyalarini bilish.

avtomobil moyi, maxsus vositalar, boshqa texnik va ta'mirlash uchun ishlatiladigan mahsulotlarni, avusiyatlari va ulardan foydalanish imkoniyatlarini bilishi zarur.



MUTAXASSISLIKKA QO'YILADIGAN TALABLAR

Maxsus uskunalar yordamida kerakli ta'mirlash ishlarini amalga oshiradi.

Shuningdek:

- yaxshi jismoniy sog'liq;
- aqliy balans;
- stressga chidamli bo'lish qobiliyati;
- aniqlik;
- javobgarlik;
- tahlil qilish qobiliyati ham juda zarurdir.

KASB TIPI "ODAM - TEXNIKA"

MUTAXASSISNING INDIVIDUAL XUSUSIYATLARI

Avtomobil mexanikasida ko'pincha payvandlash ishlari ham bor. Bu kasbda jarohatlanish xavfi yuqori bo'lganligi uchun o'ta ehtiyotkorlik talab etiladi. Bu jarayonda kuyish, yoriq, chandiq va ko'karishlar sodir bo'lishi mumkin. Shu boisdan avtomobil mexanigidan juda ehtiyotkorlik, ziyraklik talab etiladi.



KASBIY O'SISH ISTIQBOLLARI

- 1-bosqich -shogird
- 2-bosqich -ta'mirlash ustasi
- 3-bosqich - o'liy toifali usta;
- 4-bosqich- tadbir-kor



KASB EGALLASH YO'LLARI

Asosiy bilimlarni umumiy o'rta ta'lim va o'rta maxsus ta'lim muassasalarida olish mumkin

QO'LLANISH SOHASI

- avtotransport korxonalari;
- transport ustaxonalari;
- o'quv markaz va majmualari;
- servis stansiyalari va avtomashinalar boshqaruvi;

TIBBIY MONELIK

Tayanch-harakat tizimi kasalliklari, bo'yoc va eritmalarga allergik kasalliklar, ko'rish va eshitish organlari qobiliyatini pastligi

TURDOSH KASBLAR

Aloqador sohalarni ixtisoslashtirish va rivojlantirish, vaqt o'tishi bilan tobora murakkab va keng ko'lami ishlarni bajarish bilan, tegishli kasblar doirasida yangi mutaxassisliklarni o'zlashtirish mumkin.



facebook.com/tashxismarkazi

t.me/hayotgaqoqshil

www.tashxis.uz

t.me/tashxismarkazi

MUNDARIJA

BOSH MUHARRIR

Liliya Gaynutdinova

TAHRIR HAY'ATI

Amanjol AYAPOV
Boris BLYAXER
Baxodir SOBIROV
Risboy JO'RAYEV
Sevara ZUPARXODJAYEVA
Lola MO'MINOVA
Vahobjon RAJPOV
Nargiza RAXMONQULOVA
Sherzod SHERMATOV
Shavkat SHARIPOV

Mas'ul kotib

Sayyora Alimxodjayeva

Adabiy muharrir

Sayyora Alimxodjayeva

Kompyuterda terish va dizayn

Mirtohir Xoliqov

Muallifning fikri har doim ham tahririyat fikriga to'g'ri kelavermaydi. Tahririyat maqolalarning uslubiy xatolarini to'g'rilash va qisqartirish huquqini o'zida saqlab qoladi. Tahririyatga yuborilgan maqolalar egasiga qaytarilmaydi va taqiz qilinmaydi.

Mualliflarning familiyasi, ismi, sharifi ularning pasportlari ma'lumotlariga muvofiq holda yoziladi.

Мнение редакции не всегда совпадает с мнением автора. Редакция оставляет за собой право на стилистическую правку и сокращение статей. Присланные в редакцию рукописи не возвращаются и не рецензируются.

Фамилия и инициалы авторов пишутся согласно данным их паспорта.

Muassislar:

O'quvchilarni kasb-hunarga
yo'naltirish va psixologik-pedagogik
respublika tashxis markazi
«MAKTAB VA HAYOT» M.CH.J.

Jurnaldan ko'chirib bosilganda

«MAKTAB VA HAYOT» dan olindi,
deb ko'rsatilishi shart.

Jurnal 2001 yildan
chiqa boshlagan.

MANZIL:

100095, Toshkent sh.,
Olmazor t., Ziyo ko'chasi, 6A uy.
Tel: (0371) 246-21-02
E-mail: maktabvahayot@sarkor.uz

OBUNA INDEKSI - 1019

R.R.Atajanova, R.B.Hojiyev.

Barkamol avlodni tarbiyalash – davr talabi 2

A.M.Shofqorov

Chizmachilik va chizma geometriya fanlarini o'qitish orqali

o'quvchilarning grafik savodxonligini oshirish 3

R.B.Hojiyev, R.R.Atajanova.

Pedagogik ta'limning innovatsion klasteri – ta'lim tizimining renessansi sifatida 4

U.Sh.Ismatov.

Bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarini grafikmateriallarda ishlashga o'rgatish orqali ijodiy

kompetensiyalarini rivojlantirish 6

I.O.Jumayev.

Chizmachilik darslarida AutoCAD dasturidan foydalanishning

yutuq va kamchiliklari tahlili 7

U.Sh.Ismatov.

Bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilariga grafik materiallarda

ishlash texnologiyalarini o'rgatish 8

B.B.Ko'kiyev.

Talabalar emotsional intellektini tadqiq etishning psixologik imkoniyatlari 9

M.J.Maxmudov.

Tasviriy san'atda rahim ahmedovning, "ona o'ylari" asarini o'rgatish orqali

o'quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish 11

S.T.Sobirov, N.R.Sayfiyeva.

O'quvchilarni estetik jihatdan tarbiyalashda tasviriy san'at

fanining va o'qituvchining o'rni 13

X.X.Muratov.

Tasviriy san'at fanidan mustaqil ta'limni tashkil etish va boshqarishda

"ispring" dasturiy ta'minotining ahamiyati 14

S.T.Sobirov.

O'quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga to'sqinlik qiluvchi

ba'zi omillar va ularni bartaraf qilish yo'llari 18

S.M.Abduxamidov, A.M.Suyarov.

Yoshlarning huquqiy madaniyatini oshirishda ta'lim islohotlarining o'rni 20

C.O.Ataxanova, G.A.Chubarova.

Pовышение качества преподавания начертательной геометрии в вузах 22

S.X.Xabibullayev.

Umumiy o'rta ta'lim maktablarida sport to'garaklarini tashkil etishning samarali usuli 23

I.Baxriyev.

Oliy ta'limda talabalarni manzara janrida ishlashga o'rgatish va kasbiy tayyorlash 25

B.III.Karapov.

Педагогическая поддержка развития профессиональной компетентности

преподавателя физической культуры 27

X.E.Sultanov.

Ta'lim klasteri orqali o'quv muassasalarining faoliyatini samarali tashkil etish 28

S.M.Abduxamidov.

O'quvchilarda badiiy-estetik tafakkurini rivojlantirish –

dolzarb pedagogik muammo sifatida 30

B.B.Baymetov.

Tasviriy san'atda talabalar ijodiy qobiliyatlarini shakllantirishda individual yondashish 32

T.R.Ankabayev.

Tasviriy va amaliy san'atdan to'garak mashg'ulotlarini tashkil etish jarayonida

o'quvchilarning estetik madaniyatini rivojlantirish 33

X.E.Sultanov, A.I.Vapayev, U.X.Xudoyorova.

Pedagogik ta'lim innovatsion klasteri amalda: hamkorlikning ilk samaralari 35

X.X.Muratov G.D.Isametova, X.U.Kenjayevo.

O'quvchilarning mustaqil ta'limni tashkil etish mazmuni, metodi va vositalari 36

X.E.Sultanov D.Eshpo'latov, Z.Shavkatova, M.Mamatkarimova.

Pedagogik ta'lim innovatsion klasteri o'quv jarayoni va amaliyot uzviyligining asosi 38

T.S.Achilov, I.R.Choriyev.

Pedagogik ta'lim innovatsion klaster yondashuvida maktab-laboratoriya

tajribasining tarmoqlararo o'zaro hamkorligi asos sifatida 39

S.A.Toshtemirova.

Ta'lim va tarbiyaning demokratik hamda insonparvarlik tamoyili 42

A.Yo.Shadiyev.

Jismoniy mashqlar bo'lajak pedagogik kadrlarni kasbiy tayyorlashda muhim vosita sifatida 43



Albatta har bir materialdan foydalanishning ham o'ziga xos uslubi mavjud.

Tasviriy san'at sohasida yaratilgan rangtasvir asarlarining muvaffaqiyatli chiqishida akvarel bilan ishlashdan orttirilgan tajribalar muhim rol o'ynaydi. Chunki bo'yoq bilan ishlash qanchalik puxta o'rganilgan bo'lsa rangli tasvirlar shunchalik yaxshi chiqadi.

Akvareldan foydalanishda eng avval uning sifatiga e'tibor berish dardkor. Bo'yoqlarni maxsus idishlarda suv bilan aralashtirish va qog'oz bo'lagida sinab ko'rish tavsiya etiladi. Topilgan rang tusi kerakli darajaga yetgandagina undan foydalanish lozim. Akvarel bilan ishlash texnikasini puxta o'zlashtirish uchun dastlabki mashqlarni qalamtasvir singari bir rangning o'zidan qora, yoki to'q jigarranglardan har xil rang tuslarini hosil qilishni yaxshilab mashq qilish kerak. Bu usulda ishlash monoxrom yoki grizayl metodida ishlash deb ataladi.

Grizayl usulida rasm ishlash turli ranglar vositasida ish usuliga o'tishdan oldin tayyorgarlik bosqichi bo'lib xizmat qiladi. Unda mo'yqalamni ishlatish yo'llari va akvarel bo'yoqlarining xususiyatlarini o'rganish uchun imkoniyat yaratiladi. Grizayl texnikasida bir nechta natyurmortlarni tasvirlab o'rgangandan so'ng, barcha ranglarni ishlatgan holda natyurmort ishlash ancha oson bo'ladi.

Akvarel bilan ishlashda quyidagi izchillikka rioya qilinsagina bo'yoqlarda ishlangan tasvirlar talabga javob bera olishi mumkin:

- Ostki qavatdagi bo'yoq qurimaguncha, navbatdagi bo'yoq qavati yotqizilmaydi. Keyingi qavat tez qo'yilishi lozim, aks holda ostki qavat yuvilib ketishi mumkin.

- Akvarel bo'yoqlari bilan ishlashda oq bo'yoqdan foydalanilmaydi, chunki oq bo'yoq vazifasini oq qog'ozning o'zi bajaradi.

- Qo'yilgan bo'yoq qavati ostidan qog'ozning sirti sezilib turishi lozim.

Akvarel bilan ishlashni o'rganishda amaliy mashg'ulotlar muhim ahamiyat kasb etadi. Masalan, bir rangning ustiga ikkinchisini qo'yib yangi tus hosil qilish mashqini olaylik. Bunda qo'yilgan har ikkala rang ostidan ham qog'ozning sirti sezilib turmog'i dardkor. Shuningdek, sovuq tusli rang ustidan iliq tusli, yoki iliq tusli rang ustidan sovuq tusli rangni qoplash orqali yangi rang tusini hosil qilish yo'llarini puxta o'rganish kerak.

Ayrim hollarda qo'yilgan ranglarning yorug'lik darajalari bir-birlariga tenglashtirish uchun ularning ustidan biror rangning suyuq, kuchsiz eritmasi bilan qoplash tavsiya etiladi. Shuni esda tutish lozimki, muayyan rang ikkinchi bir rang bilan qoplanganda yorug'likning qaytarish xususiyatidan mahrum bo'ladi. Lekin oldin qo'yilgan bo'yoq qavatining ravshanlik darajasi hamda to'yinganligi muhim ahamiyatga ega. Ustki qo'yiladigan qavati esa doimo ohangdor, juda tiniq bo'lishi va ostidagi rang tusini bo'g'masligi shart.

Guash bo'yoq'i esa akvarel bo'yoq'ining tamoman aksi bo'lib, u ka-bi tiniq, jarangdor tus bermaydi. Ranglari yorug'likni yutganligi sababli uning tagidagi qog'oz ko'rinish, sezilib turmaydi. Tarkibi esa akvarelniki singari – bo'yoq kukuni va uni bog'lovchi moddalardan iborat. Ammo ular maxsus yog'och yelimi bilan mo'tadil nisbatlarda aralashtirilgan bo'ladi. Guash bo'yoq'ining yana bir muhim jihati uning oq bo'yoq bilan aralashtirib ishlatilishidir.

Shuning uchun uning ranglari unchakat jarangdorlik kasb etmaydi. Bo'yoqni ishlatish uchun mo'yqalamlar ham maxsus tanlanib olinadi va ular juda yumshoq bo'lmasligi, bir oz dag'alroq bo'lishi maqsadga muvofiqdir. Tasvir ishlanadigan sath, ya'ni qog'oz yoki karton ham silliq bo'lmagani yaxshi. Uning yuzasi iloji boricha yelimli qoplama (grunt) bi-

lan ishlov berilgan bo'lishi zarur. Shunda uning sathiga guash bo'yoq'ini yaxshi surtish mumkin bo'ladi. Guash ko'pincha grafik ishlarni, bezaklarni, plakatlarini ishlashda va qisman rangtasvirlarni bajarishda foydalaniladigan, suv qo'shib ishlatiladigan, tez quriyadigan bo'yoqdir. U bilan tasvirlar bajarishning murakkabligi shundaki, bo'yoq surtilgan paytda to'q, qurigandan keyin esa ochlashib ko'rinishidir. Shu jihatini hisobga olib turilmasa, ranglar orasidagi muvofiqlikni ushlab turish ancha qiyin kechadi. Buning uchun odatda har bir surtiladigan asosiy ranglar alohida-alohida maxsus idishchalarda tayyorlanib olinib, so'ng unga bir oz boshqa qo'shimchalar aralashtirib tasvir ishlanadi. Ranglarni ishlatishda, uning to'q-ochligi, rang tuslarining qanday topilganini doimo tekshirib, bilib turish uchun bir bo'lak qog'ozga tayyorlangan aralashmani surtib aniqlab, so'ng qo'llansa maqsadga muvofiq bo'ladi.

Guash bo'yoq'ida juda ko'p o'tmish rassomlari ham asarlar yaratganliklari ma'lum. Ularning bir-biridan ajoyib natyurmort, manzara, teatr bezaklari, portret, plakatlar jahon tasviriy san'ati xazinasidan o'rin olgan. Ammo shunisi borki, bu nozik, saqlanishi ancha qiyin bo'lgan ishlarning ayrimlari, ayniqsa quyuc qilib ishlanganlarining bo'yoqlari o'chib, to'kilib ta'mir talab bo'lib qolganligi sir emas. Guash bo'yoq'ida tasvirlarni bajarganda iloji boricha har bir rang tusi uchun alohida-alohida mo'yqalam tutgan ma'kul. Shunda ranglarni tiniq va toza, jozibali chiqishiga erishiladi. Guash bo'yoq'ida ranglavha va ayniqsa portretlar hamda odam tana qismlarini tasvirlash, nozik rang tovlanishlarini berish qiyin ishdir. Buning uchun ancha muncha mahorat, bilim, tajriba kerak bo'ladi. Tasvir ishlanishning yo'l-yo'rig'i, usullarini puxta egallash esa ko'p amaliy mashg'ulotlarni talab etadigan jarayondir.

Katta-katta mahobatli asarlarning xomaki nusxalari hamda kompozitsiya loyihalarini, bayram munosabati bilan tayyorlanadigan suratlarini ham guashda bajarish qulaydir. U bilan keng qamrovli, mahobatli tasvirlar tez ishlanadi.

Xulosa qilib aytganda bugungi kunda har bir oliy ta'lim muassasi oldida turgan asosiy maqsadlardan biri zamonaviy tasviriy san'at o'qituvchilariga turli grafik materiallarda xususan akvarel yoki guash bo'yoq'ining xususiyatlari va ishlatilish texnikalarini o'rgatish orqali; ularni borliqdagi va san'atdagi go'zalliklarni ko'ra bilish, idrok etish, tushunish va qadrlashga o'rgatish; estetik va badiiy didni o'stirish, badiiy fikr doirasini kengaytirish; badiiy ijodiy qobiliyat va fantaziyasini rivojlantirish, o'z uslubini, ijod yo'lini topishga xizmat qilishdan, shu bilan birga tasviriy san'at ta'lim yo'nalishida har tomonlama tajribali, yetuk kadrlarni tayyorlashdan iboratdir.

Adabiyotlar

1. Ismatov U.Sh., Application of innovation in teaching process., European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences Vol. 8 No. 5, 2020 Part II ISSN 2056-5854; 4-8 b.
2. Байметов Б.Б., Собиров С.Т., Исмаилов У.Ш. "Проблемы профессионально – педагогической подготовки учителей изобразительного искусства" Международный научный журнал «Вестник науки» № 7 (16) Том 1.2019. 63-66
3. Ismatov U.Sh., Technologies of working on graphic materials in fine arts classes (on the example of working still life in the pen. European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences Vol. 8 No. 4, 2020 Part II ISSN 2056-5853., 41-45 b.

TALABALAR EMOTSIONAL INTELLEKTINI TADQIQ ETISHNING PSIXOLOGIK IMKONIYATLARI

B.B.Ko'kiyev, Toshkent viloyati Chirchiq davlat pedagogika instituti o'qituvchisi

В статье представлена информация о правильной организации досуга студентов, способах стимулирования их творчества, а также о творческих кружках, организованных Чирчикским государственным педагогическим институтом Ташкентской области в области изобразительного искусства и инженерной графики.

Ключевые слова и понятия: творчество, деятельность, технология, мысль, самостоятельный, круг, профессия, умение, умение, персонал.

The article summarizes the ways of organizing students' leisure and stimulating their creativity. Information about extracurricular activities of students organized by the Chirchik State Pedagogical Institute of the Tashkent region in the field of fine arts and engineering graphics.

Key words and concepts: creativity, activity, technology, thought, independence, circle, profession, skill, skill, personnel.



O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 27-iyuldagi PQ-3152-sonli "Toshkent viloyati Chirchiq davlat pedagogika institutini tashkil etish to'g'risida"gi Qaroriga asosan mazkur institut maktabgacha, maktab va maktabdan tashqari ta'lim muassasalarining tarbiyachilar, boshlang'ich sinf o'qituvchilari, ayniqsa aniq fanlar va chet tillari bo'yicha o'qituvchilarga bo'lgan ehtiyojlarini qondirish, tumanlar va qishloq joylaridagi ta'lim muassasalarini yuqori malakali pedagog kadrlar bilan ta'minlash hamda xalqaro standartlar darajasiga mos oliy ma'lumotli pedagogik kadrlar tayyorlash tizimini joylarda tashkil etishni yanada takomillashtirish va ta'lim sifatini yaxshilash maqsadida tashkil etildi.

Ta'lim sohasini rivojlantirishning omillaridan biri, o'qitishning yangi zamonaviy texnologiyalarini joriy qilishdan iboratdir. O'qituvchi o'z mutaxassisligi bo'yicha egallagan bilimidan tashqari pedagogik va psixologik bilimlarni, yangi pedagogik texnologiya va o'qitish metodikalari yig'indisi bo'lgan zarur pedagogik minimumlarni egallagan bo'lishi shart.

Toshkent viloyati Chirchiq davlat pedagogika instituti "Tasviriy san'at" kafedrsi o'qituvchilari Ko'kiyev Boburmirzo Baxodir o'g'li hamda Bekqulov Qudrat Shaydullayevich tomonidan talabalarni ijodiy to'garaklarga jalb qilish, talabalarning bo'sh vaqtlarini mazmunli hamda samarali o'tkazishlari uchun ijodiy to'garaklar tashkil qilingan. To'garak tashkil qilinishi bilan talabalarni ijodkorlikka, kasb-hunarga o'rgatib borish ularni mehnatsevarlikka undab borilmoqda. Chirchiq davlat pedagogika institutida talabalarni mustaqil ta'lim olishlari uchun institut rektori G'ofurjon Muhamedov barcha sharoitlar yaratib bermoqda.

Ijodiy to'garaklardan maket loyihasi, kompyuter grafikasi, chizma-chilik va chizma geometriya to'garaklari faoliyat olib bormoqda. Har bir to'garaklar talaba bilan o'qituvchi orasidagi ijodiy muhitni yaxshilash, talabalarni o'zining qiziqishi bo'yicha yetarlicha bilim, ko'nikma olishlari uchun xizmat qilmoqda.

Faoliyat - bu o'zi uchun yoki uning atrofida bo'lganlar uchun biron bir muhim narsani yaratish uchun shaxs tomonidan bajariladigan ma'lum harakatlar. Bu mazmunli, ko'p tarkibiy va jiddiy mashg'ulot bo'lib, u dam olish va o'yin-kulgidan tubdan farq qiladi.

Faoliyatga ta'rif: O'quv kursining bir qismi sifatida inson faoliyatini o'rganadigan asosiy fan ijtimoiy tadqiqotlardir. Ushbu mavzu bo'yicha savolga to'g'ri javob berish uchun bilishingiz kerak bo'lgan birinchi narsa o'rganilayotgan tushunchaning asosiy ta'rifidir. Biroq, bunday bir nechta ta'riflar bo'lishi mumkin. Yana bir ta'kidlashicha, faoliyat inson tanasining atrof-muhitga moslashishiga emas, balki uning sifat jihatidan o'zgarishiga qaratilgan. Barcha tirik mavjudotlar tashqi dunyo bilan o'zaro ta'sirlashadi. Biroq, hayvonlar faqat dunyoga va uning sharoitlariga moslashadi, shuning uchun uni hech qanday tarzda o'zgartira olmaydi. Ammo odam hayvonlardan atrof-muhit bilan o'zaro ta'sirning maxsus shakli mavjudligi bilan ajralib turadi, bu faoliyat deb ataladi.

Ta'lim islohotlarining hozirgi bosqichida darsdan tashqari mashg'ulotlarda o'quvchilarni erkin fikrovchi, mustaqil shaxs sifatida shakllantirishda kasb-hunarga yo'llashning pedagogik texnologiyasi mazmunini ishlab chiqish va ilmiy jihatdan asoslashga oid izlanishlar alohida dolzarblik kasb etmoqda. Bu boradagi tadbirlarning muhim ahamiyati Chirchiq davlat pedagogika institutida amalga oshirilayotgan ma'naviy va ma'rifiy islohotlarning zamonaviy bosqichida, o'quvchi shaxsining shakllanishida erkinlikni ta'minlovchi yangi qirralar ochib berilayotganligi bilan tavsiflanadi.

"Kadrlar tayyorlash milliy dasturi"ni amalga oshirishning ikkinchi bosqichida majburiy umumiy o'rta va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limiga, shuningdek, o'quvchilarning qobiliyatlari va imkoniyatlariga qaratib tabaqalashtirilgan ta'limga o'tishni to'liq amalga oshirish vazifalari belgilab berilgan. Mazkur vazifalarda ta'lim muassasalarini maxsus tayyorlangan malakali pedagog kadrlar bilan ta'ldirib, ularning faoliyatida raqobatga asoslangan muhitni vujudga keltirish ko'zda tutilgan. Talabalarning darsdan keyingi bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etish, har jihatdan bilimlarini oshirish, ularning qobiliyatlari va intilishlarini maqsadli rivojlantirish, olingan nazariy bilimlarni mustahkamlash va amalda qo'llash ko'nikmalarini hosil qilish, kasbiy mahoratlarini oshirishga keng

imkoniyatlar yaratish hamda tanlangan kasbiy yo'nalishlari bo'yicha mehnat bozoriga tayyorgarlik salohiyatini kuchaytirish, ta'lim muassasalarida to'garaklar faoliyatini to'g'ri tashkil qilishga bog'liq. To'garaklar qiziqishlari bir xil bo'lgan bir guruh o'quvchilarning ma'lum bir fan yoki kasb bo'yicha, o'qituvchi va kasb ustalari yordamida bilim va mahoratlarini oshirish uchun xizmat qiladi. Toshkent viloyati Chirchiq davlat pedagogika instituti "Tasviriy san'at" kafedrsi maket loyihasi ijodiy to'garaklaridan foto lavhalar 1- rasm. Bu rasmlarda, talabalarni darsdan keyin ijodiy to'garaklarda faoliyat olib borayotgan jarayonlarni ko'rishimiz mumkin.



1- rasm.

To'garakga yangi kelgan talabalarga ham o'qituvchi ham iqtidorli talabalarning maslahatlari bilan tavsiyalar doimiy berib borilishi, yaqinda kelgan o'rganuvchiga ham onson va qulay bo'ladi. Bu to'garaklarning qiziq tomoni shundan iboratki, o'qituvchi talabaga o'rgatish bilan birga talaba talabaga hamda yangi kelayotgan o'quvchiga talabaning o'zi ustozlik qilishidir. Mana shunday jarayonni yo'lga qo'yilishi talabalarda eshitdim, ko'rdim, o'rgatdim va o'rgataman shiorini yo'lga qo'yilishida qo'l kelmoqda. 2019-2020-yilning birinchi yarim yilligida tasviriy san'at va muhandislik grafikasi yo'nalishi talabalari bilan bir nechta ijodiy ko'rgazmalar tashkil qilindi (2-rasm).



2- rasm.



Ijodiy ko'rgazmaga 1-kurs talabalarining ota-onalari ham taklif qilinib, ular bilan uchrashuv tashkil qilindi. Tadbirda "Tasviriy san'at" kafedrasini mudiri X.E.Sultonov va kafedra a'zolari talabalarining ijodiy ishlarini muhokamasini qilishdi. Birinchi kurs va ikkinchi kurslarning birinchi mustaqil tarzda uyishtirilgan ijodiy ishlarini namunali ekanini mamnuniyat bilan aytib o'tdi. Bu ijodiy ishlarni yanada ko'proq bo'lishi va namunali chiqishida to'garaklarni o'rni va ishlash jarayoni haqida ham so'z olib borildi. Tadbirda taklif etilgan ota-onalar ham ijodiy to'garaklarni haqiqatdan ham yaxshi ishlayotgani, o'g'il-qizlarini darsdan keyin bo'sh vaqtlarini mazmunli o'tkazishga sharoit qilib bergani uchun, O'zbekiston Respublikasi fan arbobi, Toshkent viloyati Chirchiq davlat pedagogika instituti rektori – G'ofurjon Muhamedovga, o'zlarining samimiy minnatdorchiliklarini bildirdi. Suhbat davomida "Tasviriy san'at" kafedrasini professor o'qituvchilariga ham o'zlarining minnatdorchiliklarini bildirishdi. Ijodiy ko'rgazmaga kelgan Danook universiteti professorlaridan Kim, Suhyun o'zining fikrlarini bildirdi. "1-kurs talabalarini tayyorlagan ishlari menga juda yoqdi, bu talabalarni o'z vaqtida to'g'ri ta'limga, to'garaklarga yo'naltirgan o'qituvchilarning ham mehnati ko'rinib turibdi"- deb o'zlarining fikrlarini bildirib o'tdi. Chet ellik mehmonlarga "Maket loyihasi", "Amaliy san'at" va "Kashtachilik" "Yog'och o'ymakorlik" ishlari juda yoqqanligini aytib o'tdi. Mehmonlar talabalarining bo'sh vaqtlarini mazmunli o'tkazishga yaxshi sharoitlar yaratib berilganligi, bu talabalarni yana ham ko'proq bilim va tarbiya olishlarini ta'minlaydi. Kim, Suhyun O'zbek yoshlarini bunday sharoitlarda ta'lim tarbiya olayotganligi, yurtinggizdagi olib borilayotgan islohotlarni to'g'ri yo'nlatirilganligidan dalolatdir-deb o'zining fikr mulohazalarini bildirdi. Danook universiteti professorlari ham ijodiy ishlarni ko'rib juda yaxshi, samimiy tilaklarini bildirib qolishdi.

Talabalarni bunday ijodiy ishlarga jalb qilish, umumta'lim maktablariga sifatli kadrlarni tayyorlashga qo'yiladigan birinchi

qadam bo'lishi mumkin. Ta'lim tarbiyaga bo'lgan bunday e'tibor, kelajakka bo'lgan poydevor vazifasini bajarishi shubhasiz.

Adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2020 yil 24 yanvardagi Oliy Majlisga Murojaatnomasidan.
2. 2017-2021 йилларда Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналишлари бўйича ҳаракатлар стратегияси IV бўлим.
3. G'.I.Muxamedov, U.N.Xodjamqulov Pedagogik ta'lim innovasion klasteri: ta'rif, tavsif, tasnif (ilmiy risola) Chirchiq "Institut" 2019.
4. Shaydulloyevich, B. K. (2020). Increasing students' graphic literacy through teaching the sciences of drafting and descriptive geometry. European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences, 8 (4), Part II, 75-78 [3].
5. Kokiye Boburmirzo Bahodir o'gli (2020). Present-day problems of drawing science. European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences, 8 (4), 203-205.
6. Kukiev Boburmirzo Bahodir Ugli Problem-based learning technology in teaching auxiliary projection techniques, 7 (6), 917-920.
7. Kokiev Boburmirzo Bahodir o'gli (2020). The importance of pedagogical techniques in teaching assistive design. European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences, 8 (2) Part II, 182-185.
8. Kukiev, B., O'g'li, A. N. N. & Shaydulloyevich, B. Q. (2019). Technology for creating images in autocad. European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences, 7
9. Murodov Sh.K. Ko'kiyev B.B. Obloqulova L.G'. Yaqqol tasvirlar qurishda qiyshiq burchakli aksonometrik proyeksiyalardagi o'zgarish koeffitsientlarining o'zaro bog'liqligi Buxoro davlat universiteti ilmiy axboroti 2/2019.

TASVIRIY SAN'ATDA RAHIM AHMEDOVNING, "ONA O'YLARI" ASARINI O'RGATISH ORQALI O'QUVCHILARNING IJODIY QOBILYATLARINI RIVOJLANTIRISH

M.J.Maxmudov, Toshkent viloyati Chirchiq davlat pedagogika instituti, "Tasviriy san'at" kafedrasini o'qituvchisi

Автор статьи рассматривает вопрос формирования эстетической культуры, развития творческих способностей учащихся через образ настоящей узбекской матери в картине Рахима Ахмедова. Прототип этого персонажа взят из реальной жизни.

Ключевые слова и понятия: изобразительное искусство, «Материнские мысли», горные деревни, творческое путешествие, точная память, о «силуэте».

The author of the article examines the issue of the formation of aesthetic culture, the development of the creative abilities of students through the image of a real Uzbek mother in the picture of Rakhim Akhmedov. The prototype of this character is taken from real life.

Key words and concepts: fine arts, "Mother's Thoughts", mountain villages, creative travel, exact memory, about the "silhouette".

Ma'lumki, tasviriy san'at inson ongiga tezda ta'sir etib, unda ezgu hislar uyg'otadigan, ma'naviy olamini boyitadigan san'at turlaridan biridir. Shu bilan birga, tasviriy san'at inson shaxsining shakllanishi va kamolga yetishiga yordam beradigan tarbiyachi hamdir. Shu jihatdan ham ta'lim tizimida yosh avlodni har jihatdan barkamol insonlar qilib tarbiyalashda tasviriy san'atning ham o'z o'rni bor.

San'atkor o'z asarlarida voqea va hodisalar, turli holatlarning ma'lum bir ko'rinishini ifodalab, tasvir orqali ichki mohiyatni ochib, kishilarning ma'naviy qiyofasi, psixologik (ruhiy) holati va fikrlarini tasvirlaydi.

Bugungi Mustaqillik davrlari tasviriy san'ati haqida gapirar ekanmiz, biz albatta vatanimiz san'ati o'tmishida o'ziga xos iz qoldirgan ijodkorlar haqida eslab o'tishimiz, tarixiy manbalar asosida ular haqida ham holisona fikr-mulohazalar bildirishimiz kerak.

Ana shunday e'tirof sohibi hisoblangan o'zbek xalq rassomi akademik Rahim Ahmedov Toshkent badiiy o'quv yurtini va Leningrad-dagi I.Repin nomidagi "Rassomlik, haykaltaroshlik va me'morlik" institutini tamomlagan. Rahim Ahmedov qahramonlarning ma'naviy

qiyofasini, ruhini, his-tuyg'ularini ta'sirli qilib ifodalagan. Rassom o'z asarlarida qahramonlarning ma'naviy qiyofasini, ruhini, his-tuyg'ularini ta'sirli qilib tasvirlagan. Bular «Ona o'ylari», «Bahor» va boshqalardir.

Toshkent teatr-rassomlik institutining akademigi Rahim Ahmedov Respublika tasviriy san'atining atoqli namoyandalardan biridir. Uning asarlari xalqaro ko'rgazmalarda namoyish qilingan, mamlakatimizning san'at muzeylari va galereyalarida saqlanmoqda

Musavvir ijodida manzara asarlari ham alohida o'rin tutadi. Uncha katta bo'lmagan, ixchamgina manzara suratlarida tabiat o'z go'zalligini ko'z-ko'z qiladi. Bu o'rinda uning tog' manzaralariga bag'ishlangan qator asarlarini, xususan, birgina «Qish» manzarasini eslashning o'zi kifoya.

Rahim Ahmedovning asarlari 1948-yildan boshlab xalqaro ko'rgazmalarda namoyish qilina boshlandi. Asarlari Moskvadagi Tretyakov galereyasi, O'zbekiston Davlat san'at muzeyi ko'rgazma va panoramalar direktsiyasida saqlanmoqda.

Rassom uzoq yillar ijodiy ishni davlat va jamoat ishlari bilan bir



O'QUVCHILARNI KASB-HUNARGA YO'NALTIRISH VA PSIXOLOGIK-PEDAGOGIK RESPUBLIKA TASHXIS MARKAZI

BICHUVCHI

Bichuvchi - mavjud qoida, ko'rsatmalarga rioya qilgan holda ma'lum bir chizma asosida andozalar bilan ishlaydi

ISH FAOLIYATINING MAZMUNI VA ISH SHARTI

Xizmat ko'rsatish sohasidagi usta bo'lib, buyurtmalarni libos tuzilishiga asoslanib bichadi.

- mijozdan o'Ichovlarni oladi;
- konstruksiyasini tayyorlab, modellashtadi.
- mato bo'yicha namunaning maketini tadbliq etadi.




MUTAXASSISLIKGA QO'YILADIGAN TALABLAR

Bichish mashinalari uchun umumiy qurilma va qoidalar, bichish ishlarining texnikasi va tashkil etilish qoidalari, usullari, matolarni kesish yo'llari, kompozit qurilishdagi matoning plastik xususiyatlar.

KASBIY O'SISH ISTIQBOLLARI

- 1) bosqich – stajyor;
- 2) bosqich – master.
- 3) bosqich – sex boshlig'i;
- 4) bosqich tadbirkor.



KASB TIPI "ODAM – BADIY OBRAZ"

MUTAXASSISNING INDIVIDUAL XUSUSIYATLARI

Qo'l mehnatiga moyilligi, xizmat ko'rsatishga moyilligi, ijodiy faoliyatga moyilligi, aniqlik, qat'iyatlik, sabr-toqat.

KASB EGALLASH YO'LLARI VA QO'LLANISH SOHASI

Kasb-hunar sohasidagi asosiy bilimlarni umumiy o'rta ta'lim va o'rta maxsus ta'lim muassasalarida hamda kiyimlarni tikish va ta'mirlash ustaxonalarida olishi mumkin;

- fabrikalar;
- xususiy korxonalar;
- ta'lim kombinatlari;
- shuningdek, bichuvchilar o'zlariga tegishli bo'lgan vazifalar va shaxsiy buyurtmalarni bajarishlari mumkin.


TURDOSH KASBLAR

Dizayner - modeler (tikuv, charm buyumlari, poyafzal) modeler - konstruktor, tikuvchilik ishlab chiqarish texnologii.



TIBBIY MONELIK

- o'tkir oshqozon-ichak kasalliklari;
- allergik kasalliklar;
- tayanch harakat tizimi kasalliklari;
- yurak-qon tomir kasalliklari;
- umurtqa pog'onasi kasalliklari;
- eshitish va ko'rish organlari kasalliklari;
- yuqumli teri kasalliklari;
- yuqori nafas yo'llari kasalliklari.



facebook.com/tashxismark
az1t.me/hiyotgaqoshil
www.tashxis.uz
t.me/tashxismarkuzi

COVID-19 BILAN KASALLANISH XAVFINI KAMAYTIRISH



Yo'tal yoki akxa urish paytida og'iz va burningizni bukilgan tirsagingiz bilan berkiting



Qo'llaringizni sovun bilan iloji boricha tez-tez yuving



Yo'talayotgan, isitma yoki nafas qisilishi bor odam bilan kamida 2 metr masofa saqlang



Ko'zlaringiz, burningiz va og'zingizga tegmang

AGAR SIZDA YO'TAL, ISITMA YOKI NAFAS QISILISHI KUZATILSA ZUDLIK BILAN SHIFOKORGA MUROJAAT QILING!